

O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RIVOJLANAYOTGAN YO`NALISHLAR

Xoliqulova Zarnigor Azimovna

*Termiz davlat universiteti o`zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi**O6984404@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o`zbek tilshunosligining zamonaviy yo`nalishlari, bu jarayonning ahamiyati va istiqbollari haqida so`z yuritiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Tilshunoslik, yo`nalish, tnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi.*

Abstract: *This article will talk about the modern directions of Uzbek linguistics, the importance and prospects of this process.*

Key words: *Linguistics, orientation, tnolinguistics, sociolinguistics, Psycholinguistics, mathematical linguistics, computer linguistics.*

Ijtimoiy hodisa bo`lgan til insoniyatning eng katta yutuqlaridandir. Uning paydo bo`lishi, tabiati, rivojlanish qonuniyatlari, tilning „hayot tarzi“ asrlar davomida olimlar e`tiborini tortib kelgan. Tilning rivoji faqat ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanib qolmasdan, uning jamiyat hayotidagi faoliyatini tahlil qilishni ham talab qiladi. O`zbek tilshunosligi so`nggi yillar davomida ma`lum darajada o`sib, taraqqiyot ta`sirida paydo bo`layotgan masalalarni hal etishga diqqatini qaratdi. Jahon tilshunosligidagi singari o`zbek tilshunosligida ham endilikda til strukturasi muammosidan tilning inson faoliyatining turli sohalaridagi vazifasiga ko`cha boshladi. „Bugun zamonaviy jahon tilshunosligidan muhim o`rin olayotgan jihat bu inson faoliyatining turli sohalar bilan uzviy bog`liq bo`lgan ilmiy ma`lumotlar singishi va o`zaro ta`siri hisoblanadi. Lingvistikaning turli fan sohalar bilan munosabatga kirishi natijasida tilshunoslikda etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi yangi yo`nalishlar paydo bo`la boshladi“.⁹⁵

E`tiborlisi shundaki, tilshunoslikda yangi yo`nalishlarning shakllanishi va rivojlanishi ilm-fan taraqqiyoti hamda ijtimoiy talablar bilan uzviy bog`liq. Tilning ichki qonuniyatlarini chuqurroq o`rganish va uni boshqa fan sohalar bilan bog`liq holda tahlil qilish ehtiyoji tilshunoslikda yuqorida aytib o`tilgan yo`nalishlarning paydo bo`lishiga turtki bo`ldi. Ushbu yo`nalishlar tilni keng qamrovli ko`lamda, turli madaniy tarixiy va ijtimoiy jihatlardan o`rganishga imkoniyat yaratadi. Mana shunday xususiyatlarni o`zida mujassam etgan yo`nalishlardan biri etnolingvistikadir.

Etnolingvistikada tilshunoslikning til va madaniyat o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni o`rganishga ixtisoslashgan yo`nalishi hisoblanadi. Ushbu yo`nalish 20-asr boshlarida antropologiya va lingvistikaning kesishgan nuqtasida shakllangan. Ayniqsa, amerikalik olimlar Edvard Sapir va Benjamin Li Uorfning ishlarida tilning inson dunyoqarashiga ta`sirini tahlil qilish orqali etnolingvistika nazariy asosi mustahkamlangan. Ushbu yo`nalishning asosiy vazifasi milliy madaniyatni ifodalovchi maqollar, iboralar, qadimgi so`zlar, miqlar va ramzlarning lug`aviy ma`nosini, madaniy va tarixiy ildizlarini tahlil qilish bilan bir qatorda tilning milliy o`ziga xosliklarini tashkil etuvchi etnografik birliklarni, masalan, xalq hayoti va

⁹⁵ A.Primov, X.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. -Urganch-2019.-10-bet.

turmush tarziga xos bo'lgan terminologiyalarni o'rganish va tadqiq qilishdan iborat. Etnolingvistikaning tahlil usullari til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini chuqurroq anglashga imkon bersa, sotsiolingvistika esa tilning jamiyatdagi o'rnini va ijtimoiy muhit bilan aloqalarini o'rganishga qaratilgan.

“Til ichki va tashqi tomonlarga ega murakkab hodisadir. Uning ichki tomonini sof lingvistika fani o'rganadi. Til va uning qurilishi bilan aloqador barcha xususiyatlar ichki tomondan o'rganiladi. Tilning til jamoasi, jamiyat bilan aloqador tomonlari uning tashqi tomoni sanaladi. Sotsiolingvistika tashqi tilshunoslikka qarashli mustaqil tarmoqlardan biridir. Bu termin o'tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lib, uni 1952-yili Amerika tadqiqotchisi X.Karri tavsiya etgan.”⁹⁶ Sotsiolingvistika– tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuyini o'rganuvchi ilmiy-nazariy soha. Ushbu yo'nalish ham bir qancha vazifalarni amalga oshiradi. Jumladan, tilning ijtimoiy sinflar, etnik guruhlar, gender, yosh va boshqa ijtimoiy omillar bilan o'zaro qanday ta'sirda ekanligini, ijtimoiy guruhlar o'rtasida til va uning variantlari o'zgarishining sabablarini, urbanizatsiya jarayonida shahar tillari va dialektlarining rivojlanishini, shuningdek, qishloq dialektlariga bo'lgan ta'sirni o'rganadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikaning predmetini qisqacha “inson va jamiyat”, deb belgilash mumkin.

“Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli nutqiy faoliyat tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish ob'ekti sanaladi. Tilshunoslik va psixologiya fanlarining ushbu kesishish nuqtasi mazkur fanlar oralig'ida psixolingvistika (yoki lingvopsixologiya) yo'nalishining yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu atama dastlab 1946 yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan qo'llandi va XX asrning 50-yillaridan keng yoyildi. Biroq uning ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga (asoschisi G.Shteyntal) borib taqaladi.”⁹⁷

Psixolingvistikaning o'rganish ob'ektiga quyidagilar kiritilgan:

- Nutq faoliyatning vujudga kelish mexanizmini o'rganish.
- Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish.
- Muayyan nutqiy vaziyatlarda so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish.
- Nutqning axborot tashish funksiyasini o'rganish va boshqarish.

Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu yo'nalishi yanada kengaygan bo'lib, nutqdagi inson omili, individuallik, ichki nutq va tashqi nutq masalalari keng o'rganilmoqda. Nutqiy faoliyat, ya'ni insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o'rganish ob'ekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Tilshunoslik kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi bo'lgan til va uning aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni bir-biridan ajratgan holda, tilning ichki tuzilishi va birliklari, ushbu birliklarning nutqiy jarayonda turli tuman voqelanishi, psixolingvistikada esa “ichki tuzilish”dan “tashqi tuzilish “ (“tashqi nutq”) qa

⁹⁶ A.Berdialiyev, M.Turdibekov. Sotsiolingvistika.- “Nodirabegim” nashriyoti.Toshkent-2022.15-bet.

⁹⁷ R.U. Madjidova, X.S. Muxitdinova, Sh.M. Sultonova. “Umumiy tilshunoslik” fanidan ma'ruzalar to'plami.-Toshkent-2016. 70-bet.

o'tishning asosiy bosqichlari, ushbu 2 tuzilishning o'zaro munosabatlari kabi qator masalalar atroflicha o'rganiladi.

Mana shunday yo'nalishlar bilan bir qatorda tilning ichki va tashqi jarayonlarini tadqiq qilishdan olinayotgan natijalar lingvistika sohasidagi boshqa ilmiy yo'nalishlar, jumladan, matematik lingvistika rivojiga yo'l ochmoqda.

“Matematik lingvistika fani XX asrning 50-yillarida (1952 yilda) tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida yuzaga keldi. Bu fanning shakllanishida Kopengagen struktural tilshunoslik maktabi (glossematika)ning asoschisi Lui Yelnislevning g'oyalari o'ziga xos „turtki“ vazifasini o'tagan. U hatto til hosidalarini matematik bayonda tushuntiradigan fanning nomini ham taklif etgan. Olimning fikricha, bu fan „Til algebrasi“ („Lingvistik algebra“) deb atalishi lozim edi”.⁹⁸ Matematik lingvistika bu – tabiiy tillarning matematik modellarini ishlab chiqish, xususan, sun'iy tillarni yaratish algoritmini tuzish bilan shug'ullanuvchi yo'nalishdir. Matematik lingvistika oldida turuvchi eng muhim masalalar quyidagilardir:

- tilning aksiomatik nazariyasini ishlab chiqish;
- formal grammatika yaratish;
- tillarning matematik modellarini ishlab chiqish.

Har bir fanning o'z maqsad va vazifalari bo'ladi. Matematik lingvistika fanining asosiy maqsadi tabiiy tillarning matematik modelini ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun fan o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- tabiiy va sun'iy tillarning formal modellari algoritmini ishlab chiqish;
- lisoniy hodisalarni matematik parametrlarda baholash;
- til hodisalarini matematik metodlar yordamida tahlil qilish.

Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo'lib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi. “Kompyuter lingvistikasi 1954 yil AQSHda Jorjtaun universitetida mashina tarjimasini bo'yicha dunyoda o'tkazilgan birinchi tajriba asnosida yo'nalish sifatida shakllana boshladi, 1960- yilga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi”.⁹⁹ Bu fanning asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, inson va mashina (kompyuter) muloqotini optimallashtirish, tabiiy tilni qayta ishlashdir. Bundan tashqari Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi avtomatik o'qitish tizimini ishlab chiqish, bilimlarni tekshirish, matnlarni turli jihatdan avtomatik tahrirlash, matnlarni avtomatik tarzda morfologik, sintaktik va semantik tahlilini ta'minlovchi tizimlar yaratish kabi bir qancha asosiy vazifalarni amalga oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tilshunoslik ayni jarayonda qator fanlar bilan o'zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi o'ta dolzarb va o'ta murakkab masalalarning yoritilishida faol ishtirok etadi. Millat rivojining asosiy poydevori ona til hisoblanadi. Til bor ekan millat yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Primov, X.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Urganch-2019.

⁹⁸ Nurmonov.A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari. Toshkent-2008.145-bet.

⁹⁹ M.Zokirov,X.Shokirova. "Kompyuter lingvistikasi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. Farg'ona-2023.5-bet.

2. R.U. Madjidova, X.S. Muxitdinova, Sh.M. Sultonova. "Umumiy tilshunoslik" fanidan ma`ruzalar to`plami.-Toshkent-2016.
3. Nurmonov.A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo`nalishlari.Toshkent-2008.
4. M.Zokirov,X.Shokirova."Kompyuter lingvistikasi" fanidan o`quv-uslubiy majmua.Farg`ona-2023.
5. <https://cybrleninka.ru>